

ALBERT EYNSHTEYN HAYOTIGA BOG`LIQ FAKTLAR VA ULARGA OID MULOHAZALAR

Raximova Kamola Karimovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar, 39-o`rta umumta`lim maktabi

Fizika fani o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizik olim Albert Eynshteyn hayoti va uning ilmiy tajribalari haqida mulohazalar keltirilgan. Olimning nisbiylik nazariyasiga qadar qanday ilmiy kashfiyotlar qilganligi haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Albert Eynshteyn hayoti, “Fizika solnomasi”, “Fotoeffekt haqida”, yorug`lik tabiati haqida kabi maqolalari, fazo, astronomik obyekt tushunchalari.

Fizika faninng asoschilaridan biri Albert Eynshteyn haqida ko`plab ma`lumotlar mavjudki, ularning ba`zi birlarini keltirib o`tamiz.

1879-yilning 14-mart sanasida Germaniyaning Ulm shahrida barcha yaxshi taniydigan, ammo nazariyalarini hamma ham tushunmaydigan daho ,nisbiylik nazriyasi asoschisi, Albert Eynshteyn dunyoga keldi. O`rtahol oilada tug`ilgan Eynshteyn avvaliga diniy bilimlarni yaxshi o`zlashtirdi. 12 yoshidan unda dunyoviy ilmni o`rganishga qiziqish ortdi. Onsining tashabbusi bilan 6 yoshida skripka chalishni o`rgandi va bu musiqiy qobiliyati umrining oxirigacha saqlanib qoldi. Eynshteyn gimnaziyada yaxshi o`qib, bilimlarni chuqur o`zlashtirdi. Ammo bolaligidan rostgo`y, haqiqatparvar bo`lgani bois, ayrim o`qituvchilarning bolalarga qilayotgan yomon muomalasi uning g`ashiga tegar, ko`pincha shu masalada ustozlari bilan bahslashib qolardi. Eynshteyn maktabni tamomlab 1894-1900 yillar orlig`ida oliy bilim yurtlarini tamomladi, matematika va fizikadan o`qituvchilik qilish huquqini berdigan diplom oldi. Ammo endi u nafaqat ilm-fan balki, kun ko`rish haqida ham o`ylardi.

U do`stining yordami bilan Bern shaharchsiga ixtirolarni patentlash federal byurosiga ekspert vazifsigga ishga qabul qilindi. Albert u yerda yaxshigina maosh evziga ixtirolar bayonotiga ekspert xulosalarini yozish bilan shug`ullanar edi. Eng muhimi unda fizika sohasini o`rganish uchun ham bo`sh vaqt qolar edi. 1904-yildan Eynshteyn “Fizika solnomasi” nomli nemis ilmiy jurnalida ishlay boshladi. Nashrda olimning XX asr fizika fani rivojiga katta ta`sir ko`rsatadigan uchta ishi chop etildi. Ammo o`sha kezlarda yosh fizikning nazariy tahlillari qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini hech kim, hatto uning o`zi ham to`la anglab yetmagan edi. Vaholanki, ushbu 3 ta ish hajm jihatdan ulkan bo`lmasa-da, mazmunan nihoyatda salmoqli edi.

Olimning birinchi maqolasi muallaq zarrachalarning harakati haqida bo`lib, uni tajribadan o`tkazib, statistic fizikaga tatbiq etish uchun ko`p vaqt kerak bo`lmadi. Ikkinchi-“Fotoeffekt haqida” nomli maqolasida Eynshteyn yorug`lik tabiati haqidagi faraz to`g`risida so`z yuritadi. Bu ish kvant nazariyasining asosi bo`lib, avvaliga buni ko`pchilik qabul qila olmadi. Biroq oradan bir necha o`n yil o`tib, olimning bu boradagi fikrlri o`z isbotini topdi. “Elektrodinamikaga harakatlanuvchi jismlar” nomli uchinchi maqola esa Eynshteynga mashhurlik olib kelgan nisbiylik nazriyasining debochasi edi. Yosh fizikning birin-ketin taqdim etgan uchta ishi sohada katta yangilik bo`lib, ular e`lon qilingan 1905-yil ilm-fan tarixiga muhrlandi. Eynshteyn o`z nazariyasi bilan Nyutonning tortishish qonunidagi ayrim kamchiliklarni to`ldirdi. Uning nisbiylik nazariyasi XX asrda fizikaga oid qora tuynuk, katta portlashlar, vaqtning sekinlashishi va boshqa ko`plab hodisalarni nafaqat tushunish, balki qayd etish vaa ilmiy asoslash imkonini berdi.

Eynshteyn o`z davrining chinakam dahosi edi. Uni shunday atashganida bolalarcha jilmayib qo`yardi. Eynshteyn umrining oxiriga qadar kosmologiya muammolarini tadqiq etish ustida ishladi. 1955-yili olimning sog`lig`i keskin yomonlashdi. Yaqinlarining xotirlshicha, olim umrining so`nggi kunlarida ham shifoxonadagi hamshiralar bilan tabiatga xos tarzda hazillashishga kuch topgan.

Buyuk olim, fizika dahosi va chin inson Albert Eynshteyn 1955-yilning 18 – aprelida 77 yoshida o`tgaan haayotidan mamnun holda bu yorug` olamni tark etdi. Shon-shuhrat, ortiqcha shov-shuvni xushlamaydigan olimning dafn marosimi uning vasiyatiga ko`ra, faqat eng yaqin do`stlari ishtirokida o`tkaziladi. Umri davomida mazmunli va samarali hayot kechirgn Albert Eynshteynning fanga sadoqaati va insoniy fazilatlari bugun ham barchaga o`rnakdir.

ADABIYOTLAR:

1. I.Toshmatova Fizika dahosi-Albert Eynshteyn.
2. Fizika. G.Ya.Myashikov, B.B. Buxovtsev.1995y